

KONFERENSIYA

“JIZZAX VILOYATI IJTIMOIIY-IQTISODIY
RIVOJLANISHINING ASOSIY
YO’NALISHLARI: MUAMMO VA YECHIMLAR”



RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI

2025-yil 21 noyabr

Jizzax viloyati ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari: muammo va yechimlar. Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami – Jizzax: O‘zMU Jizzax filiali Iqtisodiyot va turizm kafedrası, 2025-yil 21-22-noyabr. 557-bet.

Respublika miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globallashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur‘atlar bilan rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e‘tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarni qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma‘ruza tezislari to‘plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo‘nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o‘qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas‘ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M.

Tahrir hay‘ati a‘zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), prof. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dots. Alibayev S.X., t.f.f.d.(PhD), dots. Abdumalikov A.A, p.f.f.d.(PhD) Hafizov E.A., f.f.f.d.(PhD), dots. Sindorov L.K., t.f.f.d.(PhD), dots. Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD) O‘ralov A.I., p.f.n., dots. Aliqulov S.T., t.f.f.d.(PhD) Kuvandikov J.T., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Sharipova S.F., Jo‘rayev M.M.

Mazkur to‘plamga kiritilgan ma‘ruza tezislarning mazmuni, undagi statistik ma‘lumotlar va me‘yoriy hujjatlarning to‘g‘riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o‘zlari mas‘uldirlar.

Shu bilan birga, raqamli infratuzilma va savodxonlikdagi hududiy tafovutlar daromadlarning teng taqsimlanishiga to‘siq bo‘lmoqda.

Kelgusida raqamli infratuzilmani kuchaytirish, yoshlarni IT sohasiga jalb etish va raqamli tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash orqali Jizzax viloyatida aholi daromadlarini yanada oshirish imkoniyatlari mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2020). Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida PF–6079-son Farmon.
<https://lex.uz/docs/4751561>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2021). Sanoat tarmoqlarini raqamlashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida PQ–5092-son Qaror.
<https://lex.uz/docs/5348727>
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2023). 2023–2025-yillarda sanoatni modernizatsiya qilish va raqamlashtirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi”. Toshkent: VM.
4. O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi. (2023). Raqamli iqtisodiyot rivoji bo‘yicha yillik hisobot. Toshkent: AKT vazirligi.
5. O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish agentligi. (2022). Innovatsion loyihalarni moliyalashtirish va texnologik startaplar holati.
<https://innovation.uz>
6. Murotjonova Mubina Dilshod Qizi. “Raqamli iqtisodiyot va innovatsion axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishning muhim masalalari”. Advance Scientific Research xalqaro jurnali 3.07 (2023): 195-200.
7. Murotjonova Mubina Dilshod Qizi. “Turli davlatlarning raqamli iqtisodiyot sohasidagistrategiyalari”. Amerika ijtimoiy fanlar va insoniyat tadqiqotlari jurnali 3.05 (2023): 34-41.

BAXMAL TUMANIDA SPORT-TURIZMNING RIVOJLANISH BOSQICHINING IQTISODIY TAHLILI

Misirxonov Xabibxon Iskandar o‘g‘li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tadqiqotchi

habibullo.men@mail.ru

Maxmudova Nigora

O‘zMU Jizzax filiali Iqtisodiyot va turizm kafedrasi 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu tadqiqotda Baxmalda sport turizmining hozirgi holati, infratuzilma imkoniyatlari, iqtisodiy va ijtimoiy ta’siri hamda rivojlanish istiqbollari tahlil qilinadi. Mamlakatning tog‘li hududlari, xususan, Chimyon, Beldersoy,


Amirsoy, Zomin kabi kurortlar, alpinizm, xayking, treking, paraplanerizm va veloturizm kabi faol sport turlari uchun qulay sharoitlar yaratilmoqda. Tadqiqotda sport turizmining mahalliy aholi bandligiga va yoshlarning jismoniy tayyorgarligiga ta’siri, shuningdek, ekologik madaniyatni shakllantirishdagi roli o‘rganiladi. Shuningdek, sohani rivojlantirishda xorijiy tajribalarni o‘rganish, investorlarni jalb etish va davlat siyosatining ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari Xalqaro sport-turizm musobaqalari tashkil etilayotgan Jizzax viloyatining Baxmal tumani misolida olindi. Ushbu xududda sport- turizm rivojlantirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Sportning faol turlari, sport turizm, ekstremal turizm, xayking, treking, tog‘ turizmi, alpinizm, rafting, paraplanerizm.

So‘nggi yillarda Baxmalda turizm sohasini diversifikatsiya qilish va yangi yo‘nalishlarni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu jarayonda sport turizmi Baxmalning tabiiy resurslari, geografik joylashuvi va iqlim sharoitlari bilan uyg‘unlashgan holda, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning muhim omili sifatida ajralib turadi.

O‘zbekistonning tog‘li hududlari — Chimyon, Beldersoy, Amirsoy, Zomin kabi maskanlar tog‘ chang‘isi, alpinizm, paraplanerizm, tog‘ velosipedi va boshqa faol sport turlari uchun qulay sharoitlar yaratadi. Yumshoq iqlimiy sharoit esa yil davomida turli sport turlarini amalga oshirish imkonini beradi. Aynan ushbu xolatlar Baxmal tumanida xam mujassam. Sport turizmining rivojlanishi nafaqat iqtisodiy foyda keltiradi, balki aholining sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, yoshlarni jismoniy faollikka jalb etish va milliy sport turlarini ommalashtirishga xizmat qiladi. Shuningdek, bu yo‘nalish mahalliy infratuzilmaning rivojlanishi, yangi ish o‘rinlarining yaratilishi va hududiy iqtisodiy faollikning oshishiga sabab bo‘ladi.

Mazkur tadqiqotda Baxmaldagi sport turizmining hozirgi holati, infratuzilma imkoniyatlari, iqtisodiy va ijtimoiy ta’siri hamda rivojlanish istiqbollari tahlil qilinadi. Shuningdek, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqiladi. Tadqiqot maqsadi sifatida. Baxmalda sport turizmining hozirgi holatini o‘rganish hamda sport turizmi infratuzilmasining rivojlanish darajasini baholashni shu bilan bir qatorda sport turizmining iqtisodiy va ijtimoiy ta’sirini aniqlash muhimdir. Soha rivojiga to‘sqinlik qilayotgan muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat.



I-rasm. Xalqaro sport-turizm musobaqasiga kelayotgan ishtirokchilar

Tadqiqot metodologiyasi: So‘rovnoma va intervyular: Sport turizmi bilan shug‘ullanuvchi mahalliy va xorijiy sayyohlar, sportchilar, turizm operatorlari hamda soha mutaxassislari bilan suhbatlar o‘tkazish.

Statistik tahlil: So‘nggi yillardagi sport turizmi bo‘yicha statistik ma’lumotlarni tahlil qilish. Holat tahlili (case study): Amirsoy, Chimyon, Beldersoy kabi yirik sport-turizm obyektlari faoliyatini o‘rganish.

Qiyosiy tahlil: Baxmal tajribasini boshqa xududlar (masalan, Rossiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston) bilan solishtirish. Bahmalda sport turizmi uchun zarur bo‘lgan infratuzilma, jumladan, mehmonxonalar, sport zallari, qutqaruv xizmatlari, tibbiy yordam ko‘rsatish shoxobchalari yetarli darajada rivojlanmagan. Bu holat sayyohlar uchun qulay sharoitlarning yetishmasligiga olib kelmoqda.

Xulosa o‘rnida Baxmalda sport turizmi infratuzilmasini rivojlantirish uchun quyidagi choralarni ko‘rish zarur: Yangi sport obyektlarini qurish va mavjudlarini modernizatsiya qilish; Tog‘ instruktor-gidlar maktablarini tashkil etish; kadrlar salohiyatini oshirish, musobaqalar, ekspeditsiyalar va sport-turizm sayohatlarini muntazam tashkil etish, tog‘larda yangi marshrutlar, Jamoat qatnovlarining nazoratini kuchaytirish va birinchi yordam tibbiy punktlarini yaratish. Baxmalda sport turizmini rivojlantirish uchun infratuzilmani takomillashtirish, xorijiy tajribalarni o‘rganish va mahalliy sharoitga moslashtirish, shuningdek, mahalliy va xorijiy investorlarni jalb qilish bo‘yicha kompleks choratadbirlarni amalga oshirish zarur. Bu esa Baxmalning turizm salohiyatini oshirishga, yangi ish o‘rinlari yaratishga va iqtisodiy o‘sishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi PF-5924-son farmoni “O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”
2. E.Yu.Daurenov Turizm. Darslik. T 2014 yil.
3. T. Xoldarov. X.Tulenova. Turizm (Sayyohlik): Oquv qollanma T. 2010
2. <https://sport-science.uz/index.php/journal/article/view/163>